

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Parmonov Dostonbek Rustamjon o'g'li	
SERQIRRA IJODKOR.....	7
2. Ashurova Maxfuza	
MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRI SAHNASIDA KOMEDIYA ASARLARI TALQINI (2010-2015 YILLAR MISOLIDA)	9
3. Rustamov Muhammad Tolibjon o'g'li	
MADANIY TURIZM – MADANIY DAM OLISH KONTEKSTIDA.....	12
4. Jalilova Kamolabonu	
JAHON TELEVIDENIYESI TAJRIBALARIDA KULGU SAN'ATI	15
5. Mo'minova Mohinur	
MUQALLIDCHILIKDA NOTIQLIK SAN'ATINING O'RNI.	17



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

SERQIRRA IJODKOR

Parmonov Dostonbek Rustamjon o'g'li

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi

“Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrası

“Doira va urma zarbli cholg'ulari” sinfi magistranti

Telefon : 90 543 93 77

Elektron pochta: Parmonovdostonbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrası “Doira va urma zarbli cholg'ulari” sinfida professor vazifasini bajaruvchi Ikramov Ilxom Inagamovichning pedagogik, ilmiy-ijodiy, ilmiy- uslubiy, ijrochilik faoliyati yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagog, dirijyorlik, xalq cholg'ulari, assistentura- stajirovka

Malakali pedagog, o'z kasbining mohir ustasi, professor I.I.Ikromov O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrasida faoliyat ko'rsatmoqda. U doira va urma zarbli cholg'ulari mutaxassisligi bo'yicha O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor A.Odilov, dirijyorlik bo'yicha dotsent R. Ibragimov sinflarini 1985 yilda muvaffaqiyatli tugatgan va shu yili musiqiy-nazariy bilimlarini mustaxkamlash, sozanda ijrochilik mahoratini yanada oshirish maqsadida konservatoriya qoshidagi assistentura- stajirovka bo'limiga o'qishga kirib, 1987 yilda muvaffaqiyatli tugatdi.

Ustoz Ilxom Ikromov o'zining ijodiy faoliyatini 1985-1987 yillarda boshlagan. Davlat attestatsiya xulosasiga ko'ra I.Ikromovga konsert ijrochisi, o'qituvchi, xalq cholg'u asboblari orkestri dirijyori, akademik darajalari berildi.

Ustozning ko'plab shogirdlari Respublika va xalqaro tanlovlarning sovrindori bo'lgan. Jumladan : F. To'raxonov, D. Dilmurodov, A. Axmedov, T. Tursunov va boshqalar.

Ustoz konsert ijrochilik faoliyati bilan birgalikda 1984 yildan boshlab, kafedrada nashr etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalariga mualliflik faoliyatini ham boshladi.

Ustoz 1987 yildan boshlab, to bugunga qadar konservatoriya qoshida “Qo'sh- Qars” talaba doirachilar dastasiga ham raxbarlik qilib kelmoqada.

O'tgan davr ichida bu dasta 100 dan ortiq konsertlarda o'z san'atlarini namoyish etib kelmoqda.

Ustoz O'zbekiston televidinesi va radiosi orqali “Sozlar sehri”, “Zarb zavqi”, “Omon- omon bo'laylik”, “Diydor shirin” kabi musiqiy eshittirishlarning muntazam ishtirokchisiga aylandi.

Ustoz A. Navoiy nomidagi opera va balet katta teatrida, “Xalqlar do'stiligi” san'at saroyida. “Fond - form” ning katta zallarida o'tkaziladigan konsert dasturida asosiy o'rinda ishtirok etadi.

O'zbekiston san'at ustalari bilan ko'plab xorijiy mamlatlarda, jumladan

Finlandiya, Po'lisha, Hindiston, Turkiya davlatlarida konsert dasturlarida qatnashdi.

1991 yilda proffesor Turg'un Alimatov, O'zbekiston respublikasi qahramoni Minojat Yo'lchiyeva, raqs san'at ustasi Dilfruz Jabborovalar bilan birgalikda Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lib o'tgan konsert dasturida yakkanavoz, jo'shnavoz cholg'u ijrosi sifatida o'z san'atini namoyish etib keldi.

Ustoz M. Ashrafiy, M. Leviyev, S. Yudakov, F. Nazarov kabi kompozitorlarning asarlarini doira va fortepiana uchun moslashtirib, o'zining mualliflik o'quv qo'llanma va darsliklarini chop etdi.

Ustoz milliy cholg'ularini shakllantirib va rivojlantirish, yoshlarni bu sohaning sirlarini muntazam ravishda tanishtirib kelayotgan pedagogdir.

Hozirgi kunda ustozning shogirlari orasida Respublikamizning deyarli barcha ta'lim muassasalari va ijodiy jamoalarda, O'zbekiston davlat konservatoriyasida dotsentlik lavozimlarida,



O'zbekiston davlat filormoniyasi qoshidagi badiiy ansambillarda o'qituvchilik faoliyatini olib borayotgan yoshlar juda ko'pchilikni tashkil etadi.

Ustoz o'zining bu mashaqqatli , sermehnat ijodiy faoliyati bilan ko'plab mukofatlar , unvon va yorliqlar bilan taqdirlandi.

Ustozning faol va sermahsul ilmiy va ijodiy faoliyati o'sib kelayotga yosh avlod uchun yorqin na'muna bo'la oladi.

Foydalilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. T. Sayfuddinov . “Doira ijrochiligi san’ati”. “Istiqlol” 1997 yil
2. Mahmud lutfullo “Dilmurodning dilkash davralari. “Istiqlol ” 2000 yil
3. I. Ikromov “Doira darsligi” “Istiqlol” 2012 yil



MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRI SAHNASIDA KOMEDIYA ASARLARI TALQINI (2010-2015 YILLAR MISOLIDA)

Ashurova Maxfuza

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan “Uch kunlik dunyo” va “Tanho yulduz” spektakllari tahlil etilgan bo'lib, spektakllarda obrazlar tasnif etilgan. Spektakl rejissurasi va ssenografiyasi, aktyorlik ijrosi tadqiq etilgan. Spektakllarning janriy spetsifikasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: san'at, teatr, sahna, komediya, rejissor, rejissura, aktyor, obraz, personaj, xarakter.

Komediya janridagi sahna asarlarida rejissorlar tomonidan badiiy yaxlitlikka intilish mavjud bo'lib, ularning barchasida insoniylik motivlari ulug'lanadi. Insoniylikning chinakam mezonini ahloqiy fazilatlar hisoblanib, ana shu xatti-harakati tomoshabinlar tomonidan yaxlit-yorqin baholanishi, emotsional ta'sir kuchiga ega.

Spektakllar kimnidir halollik va ezgulik tomon qadam qo'yishiga sabab bo'lishiga umid qilamiz. Zero, ushbu spektakllardan ko'zlangan maqsad, ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan voqea hodisalar, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, er-xotinlik vazifalari bola tarbiyasi bilan bir qatorda, mulohaza bilan ish tutishga chorlaydi.

Ana shunday spektakllardan biri bu “Uch kunlik dunyo” (N.Qodirov, rejissor M.Azimov) spektakli bo'lib komediya janrida yaratilganligi bois keng jamoa e'tiborini o'ziga jalb etdi. Rejissor spektaklga murakkab shaklu-shamoil tanlamagan. Unda dabdabali dekoratsiya, bezalgan jarayonlar uchramaydi. Aksincha, badiiy ifoda vositalarining bari soddaga va oddiyga.

Kamtarona ko'rinishiga ega o'zbekning hovlisi va uning qoq markazidagi arava ko'rinishidagi so'ri bu uy egasi Ahmad boboning aravakash bo'lganligi hamda butun umr halol mehnat bilan kun kechirganidan boxabar etadi. Hovlining orastaligi uy bekasining saranjom sarishtaligini ifodalasa, bedanalarning biri qo'yib biri sayrashi hovlidagi fayzu-tarovatni yanada oshiradi.

Rejissor spektaklda komediyaning asosini tashkil etuvchi kulgu, yengil o'yinlaru, shodlik ulashuvchi ijroni yetakchi o'ringa qo'ysada, u kulgi bir oddiy tomosha emas, unda insonlarning ayanchli taqdirleri, beg'ubor orzu istaklari yotadi.

Erkin Komilovning keksalarga xos salobati, so'z ohangidagi bosiqlik Ahmad bobo xarakterini yorqin va to'laqonli gavdalanishida muhim omillardan biri bo'lganligi shubhasiz. Dastlabki sahnalarda Ahmad bobo kampirning jig'iga tegish maqsadida har ikki gapning birida keksalarga xos kinoyali gap so'zlari, koyishlari bilan bir qatorda bolalarcha erkalab suyishlari-yu handon otib kulishlari orqali rejissor aktyor qaharmonining so'zamol, samimiy, xushchaqchaq xarakterini namoyon etar ekan, ayrim lavhalarda rejissor uning chuqur psixologik holatlarini ham ko'rsatishga urinadi. Ayniqsa badbo'y sharob domida cho'kayotgan farzandining har safar xotinidan pul so'rab indamay chiqib ketishi xolatiga Ahmad boboning kampiri Rizvon xolaga mayus boqib turishi-yu, bosh chayqashida, naqadar ayanchli ahvolning yuzaga kelganida uning ham hissasi borligi va bu og'riq kuyuk qalbidan bitmas jarohatday muhrlanib qolganligini ifodalaydi. Nima bo'lganda ham, o'g'il bolaning tarbiyasi ko'proq ota zimmasiga tushadi. Onalar hamisha bolaning ko'ngliga qaraydi. O'g'lining olayotgan qadami, uning qilib yurgan ishlaridan xabardor bo'lish, to'g'ri yo'lga boshlash otaning vazifasi.

Ahmad boboning yoshligi, ya'ni Ahmadboyni sahnada gavdalandirgan Shuhrat Nuraliyevning ham ijro darajasi o'ziga xos. Uning qahramoni bir muncha murakkab obraz. U yosh yigitning o'y hayollari, orzu umidlarini izhor etish barobarida keksalarga xos o'jarlikni, nasihatgo'ylikni, ulardagi aql va soddalikni ko'rsatishi lozim. Aktyorning bu boradagi harakatlari tabiiy va ishonarli chiqqan. Biroq uning ba'zi sahnalardagi xatti-harakatlari, so'zlashish uslubi va ohanglaridagi kulguga moyillik o'ziga yuklatilgan – har bir davrning o'z lazzati bo'ladi degan g'oyani ochishga to'siq bo'lgan. Dastlabki ijrolarda rejissor talabini qondirgan aktyor, keyinchalik tomoshabin kulgusari komik xolatlarni yanada bo'rttirib ijro etishi natijasida spektakldagi o'zi tashiydigan “yuk”ni bir qadar unutib qo'yanligi rejissorning aktyor ijrosidagi mazkur sahnalarni teran kuzatishi zarurligidan dalolat beradi. Bu esa asarning badiiy g'oyasiga ta'sir etmasdan qolmaydi.



Rejissor M. Azimov mana shu jihatlarni inobatga olsa, sahnada Ahmadboy tugal obrazini yaratishga erishgan bo'lardi.

Spektaklning eng ta'sirchan sahnalaridan biri, uy ro'zg'or tashvishlari bilan o'ralashib ayolligini unutib yuborgan Sharofat – Vazira Yunusovaning monologi orqali qanchadan qancha o'zbek ayollarning ayanchli taqdiri namoyish qilinadi.

Sharofat Vazira Yunusova qalb iztiroblari junbushga kelganda uning tilidan bir umr yuragida saqlab yurgan dardlari otilib chiqadi. Bular shunchaki gaplar emas, balki erining mehr-muhabbatiga, shirin so'ziga tashna ayolning qalb tug'yonlari edi. Aktrisaning ko'zlari, yuzlari va so'zlari qanchalik mahzun bo'lmasin, qanchalar og'ir bo'lmasin sabr degan yukni yelkasidan qo'ymaydigan ayollarimizning matonati ham aslida ahloqning muhim bo'lagidir.

Agar pesaga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, unda qo'shni ayol obrazini uchratmaymiz. Bu faqat rejissor topilmasi.

Yuqorida tilga olingan barcha sahna asarlari juda xushchaqchaq, quvnoq ruhda bo'lib, faqatgina kuldirish, odamlarning ko'nglini xushlash uchungina sahnalashtirilmagan edi. Ularning har birida ijtimoiy hayotimizdagi voqea hodisalar kulgu orqali talqin etilgan. Biroq, oxirgi paytlarda komediya janridagi asarlarning asosiy quroli kulguning yengil-yelpilikka, beandishalikka o'rni bo'shatib berayotganini guvohi bo'lamiz.

To'g'ri, teatrga tomoshabinni jalb kilishda komediyaning o'zni katta. Endilikda tomoshabinni didi-saviyasini tarbiyalash aktyorlar zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Aktyor komediyaning ijro etishda ham o'ziga xos ma'suliyatni unutmasa, sof kulguni, sog'lom kulguni uyg'otsa, o'z aksini sahnada ko'rib barchaga kulgu bo'layotganidan uyalgan tomoshabinni to'g'ri yo'lga solarmidi.

Teatrdagi yana bir dramaturg Nurillo Abbosxonning ijod mahsuli “Tanho yulduz” komediyasi maydonga keldi. Rejissor Valijon Umarov pesaga lirik komediya yo'nalishida yondoshib, undagi voqealar tizimini badiiy ta'sirchan ifodalab berdi. Spektaklning birinchi ko'rinishidagi voqea, uch dugonaning tong-saharlab qabristonda qurgan suhbatlari g'ayritabiiy tuyuladi. Ammo u asta-sekin real voqealikka yo'l ochadi. Talabalik davrlaridan buyon mustahkam aloqa o'rnatgan, bir-birlariga doimo hamdard, hamnafas bo'lib kelayotgan uch dugona allaqachon olamdan o'tgan umr yo'ldoshlarini xotirlab qabristonga yig'ilganlar. Umrning kuz faslini boshdan kechirayotgan beva ayollar o'z o'y-tashvishlari, dardlari bilan o'rtoqlashgach, birdan erkak kishining baland ovozda aksa urganidan cho'chib, bir sapchib tushadilar. Shu payt qabrlar orasidan aksa urgan erkak chiqib keladi. Ma'lum bo'lishicha ust-boshi bir axvolda bo'lgan bu notanish erkak – Murod ayolining qabri boshida tunab qolgan. Shu bois sovuqdan rang-ro'yi ham siniqib ketgan. Bir qarashda kulgu uyg'otuvchi bu holat va tashqi ko'rinishning zahirida ichki dard, og'ir ruhiy kechinma yotadi.

His-hayajon, ruhiy holat va ichki kechinmaga boy sahna Umidaning xonadonida kechadigan voqealarni o'z ichiga qamraydi. Turmush o'rtog'i olamdan o'tganiga o'n yil bo'lgan, besh yil avval yolg'iz farzandi Layloni turmushga berganidan buyon o'zi yolg'iz yashayotgan Umida – Gavhar Zokirova tanholikda hayotini rangsiz, nursiz ko'radi. O'tayotgan har bir kundan ezilib yashaydi. Uning uyiga chaqiruv asosida santexnikning kirib kelishi turg'unlikda kechayotgan hayotini o'zgartirib yuboradi. Ikkinchi bor tasodifan uchrashib turgan Umida va Murod endi bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar. Rejissor Valijon Umarov markaziy qahramonlar Umida va Murodning tanishuv sahnasini nozik insoniy hissiyotlarga, tuyg'ularga to'ldirgan. Dramaturg kursdosh dugonalar obrazini kulgiga boy, xarakterli, haqqoniy va ishonarli tasvirlagan hamda chin ma'nodagi do'stona munosabatni yuzaga keltirgan. Uch dugonaning biri Manzura – Muqaddas Holiqova voqealar rivojida katta o'rin egallaydi. Aktrisaning do'lvor, erkakshoda hamda shaddod qahramoni Manzura badiiy yaxlit voqealar ko'lamida tomoshaviylikni ta'minlaydi.

Nurillo Abbosxon asosiy qahramonlar Murod va Umidaning taqdir yo'llari tutashishida kursdosh dugonalarining qo'shgan xissasini mahorat bilan tasvirlagan. Spektakl davomida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Jamila – Shohida Ismoilova, Manzura – Muqaddas Holiqova sof ko'ngil egasi, ruhan pokiza, mard, jasur ayollar ekanliklari bilan hurmat-etibor qozonadilar. Ayniqsa yolg'izlikdan aziyat chekib yashayotgan ikki ko'ngli yarimni bir but qilishda, ikki tanho yulduz bir juft yulduzga aylanishida ko'rsatgan hayrli ish, jasoratlari e'tirofqa loyiqdir.

Dramaturg yaratgan xarakterlarning hammasi sahna talqinida to'laqonli aks etgan. Ishtikokchilar soni ko'p emas, bor-yo'g'i besh kishidan iborat bo'lib, shundan to'rt ishtirokchi voqealar jarayonida asosiy rolni o'ynaydi. Faqat Manzuraning kundoshi sahnada bir-ikki ko'rinish beradi xolos. Ammo ana o'sha kundosh – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Gulchehra Ibrohimbekovanning kichik roli tomoshabin zalini kulgiga to'ldiradi.



Rejissor Valijon Umarov va rassom Baxtiyor To‘rayevning hamkorlikdagi ijodiy mahsuli bo‘lgan ushbu manzara asarda tanho yulduz deya hisoblangan Murod va Umidaning baxt yulduzlari bir butun bo‘lganligi, zaminda yana bir baxtli juftlik paydo bo‘lganligiga ishora beradi. Bu topilmada komediya jozibali ko‘rinishdagi obrazli yechim bilan yakunlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 288 b.
2. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Islomov T. Tarix va sahna. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
4. Rizayev SH. Ma’naviyat manzillari. Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.



MADANIY TURIZM – MADANIY DAM OLIISH KONTEKSTIDA

Rustamov Muhammad Tolibjon o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniy turizm tushunchasi, uning paydo bo‘lishi va shakllanishi, madaniy dam olish kontekstida madaniy turizmni tashkil etish, moddiy madaniy meros hisoblanuvchi madaniy obyektlar va ularda madaniy turizmni tashkil etish asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, dam olish, madaniy dam olish, turizm, madaniy turizm, tarix, ziyoratgoh, madaniy obyekt.

Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston o‘zining boy madaniy va tarixiy merosi, betakror me’morchiligi va san’atiga ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Shahrisabz hamda Qoraqalpog‘istonning qadimiy tarixiy obidalari O‘zbekistondagi tarixiy va madaniy turizmning asosiy poydevori hisoblanadi.

O‘zbekistonda madaniy turizm sohasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, xalqning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob madaniy merosni asrab avaylashni kuchaytirish sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, jahonning ilg‘or tajribalarini samarali qo‘llash hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Madaniy turizmni rivojlantirishda hududlarda mavjud bo‘lgan tarixiy hamda arxeologik obyektlarning o‘rni muhimdir. Ularning tarixiyliigi, hudud tarixida tutgan o‘rni hamda saqlanganlik darajasi unga qiziquvchi turistlarning sonini oshishiga yordam beradi. Har qanday tashrif buyuradigan sayyoh uchun bir manzilgohda bir nechta obyektlarning mavjud bo‘lishi, uning safar vaqtining davomiyligini uzaytirib beradi. Bu jarayon esa turistik xizmatlarni ko‘proq export qilish imkoniyatini va yondosh tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki beradi.

Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ma’lum hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda shu joyning tarixiy-madaniy obyektlari asosiy o‘rinni egallaydi. Lekin ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi obyektlar va yodgorliklar ro‘yxatiga kiritiladi.

Bunday ro‘yxatni YUNESKO har yili aniqlab boradi. Keyingi yillarda O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda.

YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko‘rib chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta’minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha tarixiy-madaniy turizmning moddiy merosini boshqarish uchun obyektlar soni, holati, shuningdek, asliga mos obyektlar ya’ni restavratsiya va tamirlash jarayonida o‘zgartirilmagan asli saqlanib qolingan ulushi va obyektlarning har xilligini hisobga olish zarur.

Obyektlar har xil hajmlarga ega bo‘lgani bois, ularni shu belgi bo‘yicha tasniflash zarur. Quyidagi toifalarni ajratish tavsiya qilinadi:

- me’moriy majmualar;
- alohida turgan me’morchilik obyektlari;
- kichik me’moriy shakllar;
- turmush, xo‘jalik va ijtimoiy hayot obyektlari.
- turistik biznes korxonalari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish ko‘rsatkichlari [3, 65].

Ushbu ko‘rsatkichlar turistik xizmatlar ko‘rsatishga jalb qilingan tashkilotlar o‘rtasidagi gorizontal aloqalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflaydi.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish salohiyatini yuqoriligini e’tiborga olgan holda, iqtisodiy adabiyotlar ma’lumotlar tahlili asosida turizmning iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta’sirlarini qayd etish mumkin:



- ish o‘rinlarini ko‘payishi hisobiga bandlik darajasini oshishi. Rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasiga 3-5% ish o‘rinlari to‘g‘ri keladi;
- -turizm o‘z rivojlanishi jarayonida bilvosita boshqa tarmoqlarni ham rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi (qurilish, transport, yo‘l, oziq-ovqat savdo sanoati va boshqalar);
- turizm industriyasi yuqori o‘sinh sur‘atlariga ega, pandemiya inqirozi oldingi davrda dunyo mamlaktlarida turizmdan tushadigan valyuta tushumlari har yili o‘rtacha 8-12% ga o‘sgan;
- turizmning “ko‘paytiruvchi samarasi”, ya’ni turizmga sarflangan mablag‘larning yuqori aylanuvchanlikka egaligi;
- -milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi”
- xorijiy sarmoyalar jalb etish va chet el valyutasida daromadni keltirishi;
- chet ellarda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy imijini yaxshilaydi;
- milliy parklar va qo‘riqxonalar vujudga kelishini va rivojlanishini rag‘batlantiradi;
- san‘at asarlari va urf-odatlar saqlanishiga xizmat qiladi va boshqalar [2, 49].

Shuningdek, tarixiy-madaniy turizm rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ayrim salbiy omillarni ham keltirish lozim. Xususan, tarixiy-madaniy obyektlarni saqlash, rekonstruksiya qilish katta investitsiyalarni talab qiladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar kapital tanqisligidan kelib chiqib, ularni saqlab qolish uchun yetarlicha mablag‘ ajrata olmasligi mumkin. Shuningdek, sohani rivojlanishi bevosita davlat siyosatiga bog‘liqdir.

Davlatning olib boriladigan oqilona siyosati tarixiy-madaniy turizm sohasini rivojlanishiga, xalqaro hamkorlikni kuchayishiga, sohada innovatsiyalar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanilishiga olib keladi va aksincha nooqilona siyosat turizm obyektlari va yodgorliklari qarovsiz qolishiga, talon taroj qilinishiga olib keladi.

Madaniy turizm tushuncha asosida o‘z ichiga madaniyat namunalarini oladi. Mazkur turizm madaniy turistik bozor orqali amalga oshiriladi va rivojlanadi. Madaniy turistik bozor madaniy turizmdagi talab va taklif asosida amalga oshiriladigan turistik mahsulot oldi-sotdi bitimlari yuz beradigan joy hisoblanadi. Biroq, bunday savdolar bir joyda kechmaydi. Ya’ni, savdo teleks, telegramma, faks, telefon, sotuvchi va xaridorning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi. Asosiy maqsad madaniy turizmni tashkil etish va rivojlantirishdan iboratdir.

Madaniy turizm asosida madaniy va maroqli dam olishni tashkil etuvchi omillar yotadi. Bular turistlarning bilim olish, dam olish va shunga o‘xshash turli ehtiyojlarini qondirgan va turistning ba’zi faoliyatlarda ishtirok qilishini tashkil etgan omillar hisoblanadi. Mazkur omillarni hisobga olib, O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish quyidagi imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- sohada olinadigan daromadlarni ko‘paytirish uchun asosiy e’tiborni ko‘proq turistlarni qabul qilishga qaratish;
- mehmonxonalarda mijozlarga xizmat ko‘rsatishning davomiyligini uzaytirish uchun xorijiy turistlarga muhim e’tibor berish;
- sohada xizmat ko‘rsatiladigan kishilar sonini oshirish maqsadida mehmonxonalarni takomillashtirib, xonalarning jihozlanishi va xizmatlar darajasini turistlarining talablariga moslashtirib borish;
- O‘zbekistonga keladigan turistlar oqimini ko‘paytirish hamda respublikamizning xalqaro turistik markazlaridan biri sifatida mavqeini yuksaltirishda chegara, bojxonadan o‘tish, ruxsatnoma olish va boshqa rasmiyatchiliklarni yanada soddalashtirish [5, 28].

Darhaqiqat, madaniy turizm insonlarning ko‘ngil yozish, hordiq chiqarib dam olishga mo‘ljallangan hatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashkari, bu turizmga ish hamkorlari va uzoqlardagi do‘st-qarindoshlar bilan uchrashish kabilar ham kirsada, amalga oshirilayotgan bunday sayohatlar davomida ham ko‘ngilxushlik va hordiq yozishlardan voz kechilmaydi. Shuningdek, madaniy turizm asosida o‘zga xalqlarning madaniyati, tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, folklori va hayot tarzi bilan qiziquvchi turistlarning barcha turdagi amalga oshiriladigan faoliyatlarini qamrab oladi.

Natijada, insonlar o‘zga xalqlarning madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishish maqsadida mahalliy teatrlar hamda milliy san‘at va xalq ijodiyoti namoyish etiladigan joylarga ko‘proq e’tibor beradilar. Hattoki, ba’zi bir turistlar mahalliy aholi istiqomat qiladigan uylariga mehmon sifatida tashrif buyurishdan voz kechmaydilar va bu bevosita rezidentlarning madaniyati bilan tanishishning eng yaxshi usuli deb hisoblanadi. Bunga xos 2000 yilning sentabr oyida oldingi “O‘zbekturizm” MK qoshida tashkil etilgan “O‘zturservis” respublika tashqi-iqtisodiy savdo



ishlab chiqarish unitar korxonasi mutaxassislari tomonidan turistlarning asosiy maqsadi dunyoni bilish, dunyo xalqlari tarixi, madaniy obidalari bilan tanishish, ularni o'rganish va aloqaloqalarni yanada mustahkamlash, deb ta'riflandi.

Umuman olganda, madaniy turizm insonlarning o'zga xalqlar madaniyatlari bilan tanishishga bo'lgan qiziqishlariga asoslanadi va har bir turist o'z ehtiyojlarini belgilangan talablar orqali qondirilishini istaydi hamda bu orqali madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. WTO. World overview & tourism topics. Tourism market trends. 2003 edition. – p.25.
2. Aliyeva M.T., Norchayev A.N. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 131 b.
3. Kamilova F.K., Ro'ziyev S.S. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.
4. Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid atamalar hamda iboralar izohli lug'ati. – Samarqand, 2010.
5. Saidov A.F. O'zbekistonda turizm: Istiqbol va muammolar. – T.: Mehnat, 1992.



JAHON TELEVIDENIYESI TAJRIBALARIDA KULGU SAN'ATI

Jalilova Kamolabonu

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. XX asrda ilmiy-texnikaviy inqilob farzandi sifatida jamiyat hayotining qatlamlarini qamrab olgan televideniye qisqagina vaqt ichida xalqning ma'rifatli bo'lishida, axborot bilan ta'minlanishida eng muhim vositalardan biriga aylandi. Badiiy fenomen sifatida u o'zigacha faoliyat ko'rsatib kelgan barcha san'at turlarining eng afzal jihatlari va imkoniyatlarini o'zlashtirdi, o'zining beqiyos xislatlari bilan boyitdi.

Kalit so'zlar. Televizion kulgu, hajviya, janr, kadr, fenomen, musiqa, teatr, kinematografiya, estrada.

Annotatio Television, covering the strata of the life of society as a child of the scientific and technical revolution in the twentieth century, in a short time became one of the most important tools in the Enlightenment of the people, in the provision of information. As an artistic phenomenon, he mastered the most preferred aspects and opportunities of all kinds of art, which he himself worked on, enriched with his incomparable qualities.

Keywords. Television laughter, satire, genre, staff, phenomenon, music, theater, cinematography, variety.

Аннотация. Телевидение, охватившее в XX веке все слои общественной жизни как дитя научно-технической революции, за короткое время стало одним из важнейших средств просвещения народа, его информационного обеспечения. Как художественный феномен, он впитал в себя наиболее предпочтительные стороны и возможности всех видов искусства, функционировавших до него, обогатил его непревзойденными качествами.

Ключевые слова. Телевизионный смех, юмор, жанр, кадр, явление, музыка, театр, кинематограф, эстрада.

Jahon televideniyesi tajribalaridan ma'lumki, televideniye endilikda erishgan xususiyatlari, afzalliklariga birdaniga ega bo'lib qolgani yo'q. U o'zining tadrijiy taraqqiyot bosqichlari bo'ylab yuksala-yuksala, intila-intila shu kungi darajasiga yetib keldi.

Taraqqiyotning birinchi bosqichi - televideniye texnika bazasini ijodiy o'zlashtirish, teledasturlar tuzish, televideniye janr va mavzularini takomillashtirish, ijtimoiy dolzarblik va kasb mahoratini egallab borish singari masalalar bilan bog'liq edi.

Shunday qilib, televideniye dastlab kashf etilgan paytda oddiygina aloqa vositasi sifatida ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik esa an'anaviy ijod turlarini – musiqa, teatr, kinematografiya, estrada san'ati asarlarini namoyish qiladigan translyatsiya vositasi bo'lib faoliyat ko'rsatdi, so'ng esa, bir necha o'n yillar mobaynida yuqoridagi san'at turlarining eng afzal jihatlari o'zida mujassamlashtirgan televideniye badiiy madaniyat majmuasiga aylandi.

Badiiyat olamidagi har qanday yangi hodisaning «boshidan kechishi mumkin bo'lgan savdolar» televideniye ham peshonasida bor ekan – u to o'zining xususiyatlarini shakllantirib olgunga qadar, sohadagi o'ziga «qarindosh» bo'lgan san'atlar bilan munosabatlarni aniqlashtirib olishga ham vaqt sarflab yurdi. Yangi tug'ilib kelayotgan san'at – televizion estrada shunday bir ajoyib kommunikativ (hamma narsani birdaniga qamrab oladigan) hodisa ekanki, uning yordamida aholining keng qatlamlarini ham, hattoki boshqa axborot va aloqa vositalari bilan ham kirib borish mumkin bo'lmagan nuqtalargacha qamrab olsa bo'lar ekan! Ya'ni, hamma joyda «hoziru nozirlik» xususiyati – televideniye radiodan «yuqqan» xislat edi.

Yangi san'at turi – televizion estradaning yana bir o'ziga xos xususiyat bor edi: televideniye tasvir va tovush «hamrohligida tomoshabin e'tiboriga yetib bora olardi. A. Yurovskiy televideniye bu xususiyatini «ekraniylik» tushunchasi ostida talqin qilgan edi. Ya'ni, mana shu «ekraniylik» sabab televizion obrazlar tomoshabinlar aql-idroki, tafakkuriga bevosita yetib boradi, shuning uchun ham bu yangi san'at hammaga va har bir tomoshabiniga tushunarli, «oson hazm bo'ladigan» yangilik edi.

Simultantlik, voqea-hodisalarning bir paytning o'zida ro'y berishi va o'sha lahzalarda ekranda namoyish qilinishi, telekameralar orqali shu vaqtning o'zida efirga uzatilishi – jonli ko'rsatuvning hayotiyligini yanada oshiradi. Bunday ruhdagi bevosita namoyish qilish tomoshabin aql-idrokiga o'ta nozik ta'sir, aynan o'sha teleko'rsatuvninggina emas, umuman



butun teledasturlarning ishonchli xujjatlar asosida amalga oshayotganligiga ishonch ortadi.

Shunday qilib, yangi san'at malikasi – TV estrada o'zining xususiyatlariga ko'ra san'atning manzara-vaqt jihatidan afzallik tomonlarini namoyish etdi va shu xususiyatlari bilan ekrandagi tasvir orqali ham barcha san'at turlarini birlashtira olish xususiyatini ko'rsatdi.

Yuqorida aytganimizdek, paydo bo'lishda oddiygina texnika kashfiyoti bo'lib tug'ilgan televideniye endilikda tovush, rang, format o'lchamlari singari badiiyat vositalarini qadam-baqadam o'zlashtirgan holda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Agar qirquinchi yillarda teleekran o'lchamlari 9+12 sm.dan oshmagan bo'lsa, shundan keyingi yigirma yil mobaynida bu o'lchamlar besh barobar o'sdi, teleko'rsatuvlarni rangli holatda namoyish qilish boshlandi. Sifatiga ko'ra, televideniye hali kinematografiyaga yetib ololmagan bo'lishiga qaramay, (kinoda tasvirlarga ko'ra xira ko'rinishlar ko'p, aniq-ravshanlik kuchlik emas edi), yaqin yillar ichida televideniye ham bu borada kinematografiya erishgan yutuqlarga yaqinlashib borishiga hech kim shubha qilmaydi.

Televideniye hayotimizga boshqa san'at turalridan ancha keyin kirib kelganiga qaramay, endilikda u “uyatchan shogird-bola” rolini o'ynashdan allaqachon voz kechib, o'z yo'lini topib olishga intilmoqda. Televideniye – “madaniyat tashuvchi ulov” sifatidagi vazifalarni bajarishdan bosh tortmagan holda, u o'zining xususiy badiiy asarini yaratish darajasiga qadam-baqadam yaqinlashib kela boshladi. “Televizion san'at tushunchasi allaqachonlar turmushimizga ham, tafakkurimizga ham mustahkam kirib oldi, - deb yozadi tadqiqotchi R. Kopilova, televideniye atrofida bo'layotgan munozaralar esa xuddi kinematografiya haqidagi bahslarni esga soladi – kinematografiya ham o'zining estetik mustaqilligiga erishgunga qadar mana shunday kurashlar silsilasidan o'tgan edi”.

Televideniye eng reytingi yuqori janrlaridan biri bu hajviy dasturlar hisoblanadi. Kamdan kam dasturlar o'z atrofida keng auditoriya tuzishga qodir. Hajviy ko'rsatuvlar reytingi doimiy ravishda seriallar tomoshabinlari bilan taqqoslanadi. Chunki hajviy ko'rsatuvlar mavzusi bachkanalikka qurilmagan bo'lsa, bunday ko'rsatuvlar oilaviy tomosha qilinadi.

O'zbekiston xalq artisti Ergash Karimovning bir so'zi bilan gapirib o'tsak. “Televizor ekranida yangraydigan kulgining tagida hamisha ziyrak fikr va uyg'oq dard bo'lishi kerak, aks holda kuldirishning sirkdagi masxarabozga qo'yib bergan ma'qul” degan edilar. Aynan “teleekran kulgusi” qiziqchi, masxarabozlik san'ati, sahna estrada kulgusi unsurlarini takrorlamaydi, balki o'ziga xos sifatlarini namoyon etadi.

Televizion kulgi dasturlari orasida satiraning tutgan o'rni va ro'li nechog'lik ahamiyatli ekanligi televideniya shakllangan yillardayoq e'tirof etilgan. Satira ijtimoiy hayotning og'riq nuqtalarini topishda o'tkir quroldir. Televideniya esa yanada kuchliroq yanada baquvvatroq qurolga aylanadi. Bu quroldan albatta foydalana bilish kerak.

Insoniyat tarixida har bir xalq o'ziga xos jihatlari o'z orzu-armonlari bilan yashab kelgan. Xar bir millat o'z erki g'ururi, nomus orini barcha narsadan ustun qo'yadi. Aynan kulgu o'zi hayotdan zavqlana bilish, insondagi samimiylik tuyg'usi va kurashchanlik ruhini tarbiyalash vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Islomov T. Tarix va sahna. – Toshkent: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
4. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. B. Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 352 b.
5. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
6. Qodirov M.X. Navoiy va sahna san'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 167 b.
7. Qodirov M.X. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. – 240 b.
8. Qodirova D.M. XX asr o'zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari: Avtoreferat. ... san.fan. dok. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik instituti, 2010. – 48 b.



MUQALLIDCHILIKDA NOTIQLIK SAN'ATINING O'RNI.

Mo'minova Mohinur

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. Inson ovozig, xatti-harakatiga va imo-ishorasiga taqlid qilish kishi ma'naviyatining ham belgisidir. Ayrim to'y va ma'rakalarda ma'lum shaxslarning ovozi yoki qiyofasiga taqlid qilishda ba'zi bir noxushliklarga yo'l qo'yish kabi holatlar quloqqa chalinib turadi. Shuning uchun ham taqlid qilish iqtidoriga ega bo'lgan shaxs, avvalo, muqallidlik san'atining o'ziga xos nozik jihatlari, etik va estetik normalarini yaxshi bilgan bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar. Muqallid, nutq, taqlid, diktsiya, notiqlik, diapazon, mutyiba.

Аннотация. Подражание человеческому голосу, поведению и жестам также является признаком человеческой духовности. На некоторых свадьбах и свадьбах бывают случаи, когда в ухе проскальзывают какие-то намеки на подражание голосу или образу определенных личностей. Поэтому человек, обладающий талантом подражания, прежде всего должен хорошо знать специфические тонкости искусства подражания, этические и эстетические нормы.

Ключевые слова. Подражание, речь, подражание, дикция, красноречие, диапазон, мутиба.

Annotation. Imitation of the voice, behavior and sign of a person is also a sign of a person's spirituality. In some weddings and memoirs, there are cases such as the possibility of some trifle in imitation of the voice or image of certain persons, when there is a ringing in the ears. Therefore, a person who has the ability to imitate, first of all, should be well aware of the specific subtleties, ethical and aesthetic norms of the Performing Arts.

Keywords. Muqallid, speech, imitation, dictation, articulation, Diapason, mutyiba.

Bu san'atning hozirda ko'p uchraydigan hammaga ma'lum va maqbul bo'lgan turi taniqli, mashhur aktyor yoki xonanda ovozig taqlid qilishdir. Albatta, hamma san'atkorlar ham taqlid obekti bo'lolmaydi. Buning uchun u o'z ovozi va uslubiga, ijro mahorati va manerasiga ega bo'lgan talantli san'atkor bo'lishi lozim. Shundagina muqallidlik bu turi taqlid obektidagi shaxsning qobiliyatiga, san'atkorlik iste'dodiga tan berish ifodasi bo'la oladi.

Ovozidagi o'ziga xoslik, ajralib turuvchi jihatlari bor bo'lgan san'atkorlargagina taqlid qilishadi. Shu ma'noda, ayrim qiziqchilar mashhur san'atkorlarimizdan Zikir Muhammadjonov, Hamza Umarov, Olim Xo'jayev, Abror Hidoyatov, Abbos Bakirov, Shukur Burhonov, Soyib Xo'jayev, Ergash Karimov, Qodir Maqsumov, Mirzohid Rahimov, Turg'un Azizov, Erkin Komilov, Tesha Mo'minov kabi iste'dod sohiblarigagina taqlid qila olishadi.

Muqallidlik san'atining ayrim ko'rinishlarini, hattoki, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin. Bunda ham taniqli olim yoki tanqidchilikning badiiy asarni tahlil qilishdagi o'ziga xos uslubini chuqur o'zlashtirish orqali uning tahlil va talqiniga o'xshatib yoziladi. Shu yo'sinda yengil kayfiyat va beozor kulgi tug'diriladi. Bir paytlari "Sharq yulduzi" jurnalining ayrim sonlarida berib turiladigan "o'rtoqlik hazillari" rubrikasi ostidagi materiallar ham taqlid san'atining badiiy ijod sohasidagi bir ko'rinishidir. Undan tashqari qiziqchilarning ayrimlari shoirlarimizning she'r o'qish uslubiga o'xshatish orqali ham e'tibor qozonishadi. Abdulla Oripov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva kabi mashhur ijodkorlarning she'r o'qishiga xos usul, qochirimlarini egallash va muqallidlik qilishning hamma ham uddasidan chiqavermaydi.

Muqallidlik san'atining taqlid tushunchasini badiiy ijoddagi taqlid tushunchasi bilan almashtirmaslik kerak. Ikkalasi boshqa-boshqa narsalardir. Badiiy adabiyot olamidagi ta'sir tushunchasi uning rivojini ta'min etsa, taqlid tushunchasi chinakam ma'nodagi adabiyot va san'atning taraqqiyoti yo'lidagi g'ovdir. Shuning uchun ham taqlid va ta'sir tushunchalari o'zaro murosasizdir.

Muqallidlikning insonga taqlidini o'z mohiyatiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'lish mumkin: insoning xatti-harakatiga, qiyofatiga, ovozig, nutqiga. Shu o'rinda nutqning o'ziga xosligi san'atkorning xarakterini ochishda muhim omildir. Har bir insonning o'ziga xos so'z topish va tanlash usuli bor bo'lib, nutq shu ma'noda individualdir. Til esa umumiylik kasb etadi. Aytish joizki, har bir san'atkorning ham o'zi xush ko'rib ishlatadigan so'zi, boshqacha aytganda, tayanch so'z



va iboralari bo‘ladi. Nozik didli, o‘ta kuzatuvchan muqallidlar buni e‘tibordan soqit qilishmaydi. Muqallidlik hozirjavoblik, bamisoli notiqlik san‘atiga o‘xshash vaziyatga mosu xos so‘zni topib ayta bilish san‘ati hamdir. Sahna nutqi bu aktyor nutqining jilolanishi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, muayyan qoidalarga amal qilinishi majmuidir. Sahna nutqi bilan notiq nutqini farqlash zarur. Muqallid esa aktyor nutqiy ohanglarini o‘zlashtira olish mahoratidan kelib chiqadi.

Notiqlikda so‘z qo‘llash mahorati borasida so‘z ketganda, notiq nutqida uch bosqich amalga oshiriladi. Bu topish, tanlash, va qo‘llashdir. Topish notiqlarning so‘z boyligiga daxldor bo‘lsa, tanlash didi, saviyasiga, qo‘llash esa uning mahoratiga tegishlidir. Topish til boyliklaridan, sinonimlardan qanday foydalana olishingizga mezon bo‘lsa, tanlash psixologik, etik va estetik normalarga amal qilish zaruratini bildiradi. Qo‘llash esa og‘zaki yoki yozma ravishda bo‘ladi. Siz tinglovchi yoki tomoshabin bilan yuzma-yuz bo‘lasiz. Aytilgan so‘z otilgan o‘qdek keta boshlaydi. Zal yoxud auditoriyada o‘zingizni, so‘zingizni, yuzu ko‘zingizni jamoaga rosleysiz, xosleysiz, mosleysiz. Aks holda, fikr ommaga yetib bormaydi, maqsad to‘g‘ri yo‘naltirilmagan bo‘ladi. Jamoaga yetkazmoqchi bo‘lgan fikringiz, oliy maqsadingiz strategiya bo‘lsa, uni amalga oshirish bilan bog‘liq usul va yo‘llar esa taktikadir. Har qanday taktik harakat strategik maqsad bilan ekanini yodda tutish mohiyatlidir. Vaziyatga, omma kayfiyatiga qarab taktikani almashinib turishini e‘tibordan soqit qilish yaramaydi. Nutqning jonli, ta’sirchan va aniq ifodalashga intilish, ya’ni, ijro mahoratiga erishish ahamiyatli.

Notiqlarning nutqiy jarayoni uch bosqichli bo‘lsa, sahna nutqida esa ikkita bosqich amalga oshiriladi. Bu yodlash va aytish. Matn turg‘unligi aktyorning erkin harakat qilishiga imkon bermaydi. U ta’bir joiz bo‘sa, jilovlangan ot kabidir. To‘g‘ri, aktyor matn mazmuni va ruhidan kelib chiqqan holda, ba’zan improvizatsiyaga yo‘l qo‘yishi mumkin. Lekin, me’yordan oshib ketishi ma’qul ko‘rilmaydi. Aktyor quvvai hofizasi va so‘zlarni aniq, jozibador, ta’sirli ayta olishi bilan notiqlarga ibrat bo‘ladi deyish mumkin. Chunki, ularda ovoz, nafas mashqlari, til, tish, burun, lab, jag‘ kabi nutq a’zolarining maromli, me’yoriy harakatlari qayta-qayta ishlanib takomillashgan bo‘ladi.

Notiq ham, aktyor ham, boshlovchilar ham o‘zini ko‘zguda ko‘rib pardoz-andozini joyiga keltiruvchi mashshota singari o‘zini eshitib, jamoa nigohi bilan o‘zini ko‘rmasa maqsadi ro‘yobga chiqmasligi tayin.

Notiq nutqi va sahna (aktyor) nutqi tafovutlari borasida har xil munozaralar bor. To‘g‘ri, nutq ta’sirchanligini ta’minlashda har ikkalasi bir-birini to‘ldiradi, boyitadi. Lekin birida ijod, ikkinchisida ijro muhim rol o‘ynashini yodda tutish kerak. Avtobus va tramvayni ko‘z oldingizga keltiring. Avtobusni boshqarishda rulni o‘ng-u so‘lga burib harakatlantirish, qayrilish mumkin. Tramvayni esa yotqizilgan temir yo‘li va ustidagi elektr simlari manbaisiz, uning harakatini tasavvur qilish mushkul. Faqat harakatning sekin va tezligigina, uning izmida. Notiq nutqi avtobus haydovchisiga, aktyor nutqi esa tramvay boshqaruvchisiga o‘xshaydi.

Muqallidlik san‘atida har ikkalasiga xos xususiyatlarni ham idrok etish talab etiladi. Aks holda, muqallidni muvaffaqiyat qarshilamaydi.

Umuman aytganda, ildizlari qadim zamonlarga borib taqaluvchi muqallidlik san‘ati kulgi orqali kishi diliga ruhiy yengillik baxsh etuvchi katta ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan san‘atgina emas, balki u xalqimiz tabiati, didi va dunyoqarashining ko‘zgusidir.

Biz muqallidlik san‘atining tarixi, o‘ziga xosligi va turlari borasida umumiy yo‘sinda ba’zi fikrlarni o‘rtoqlashdik, xolos. Bu san‘atni atroflicha o‘rganish, qiziqchilik, askiyachilik, teatrshunoslik kabi san‘at turlariga munosabat masalalarini yoritish san‘atshunos va folklorshunoslar oldida turgan vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M.X. Tomosha san‘ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1993. – 207 b.
2. Rahmonov M. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII-asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Кнебель М.О. Слово в творчестве актёра. - М.: Искусство, 1954. –152 с.
4. Юсупова М.Р. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Ташкент: Lesson Press, 2021. – 161 б.
5. Клигин С.С. Эстрада и современные проблемы развития эстрадного искусства. - М., 1968. – 157 с.
6. Клигин С.С. Эстрада. Проблемы теории, истории и методики. - Л.: Искусство, 1987. - 190 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000